

ALI MUTARRIZIYNING ARAB TILIGA OID ASARLARIDAGI
XUSUSIYATLAR VA MUALLIFNING FASOHATI

Fahrutdinova Nodirabegim Jasur qizi

O'zDJTU Sharq filologiyasi 2-kurs talabasi

tel: +998 934271927

ummumanzura@gmail.com

Ilmiy raxbar: Umurzakova O.

Annotatsiya. *Ushbu maqolada Movarounnahrda yashab ijod qilgan, arab tili, adabiyot, fiqh sohalarida faoliyat yuritgan olim Mutarriziyning "Al Misbah fin nahv" asari haqidadir. Maqolada asarda qo'llanilgan uslub, uning boblari va kitobdan ayrim misollar keltirilgan, Mutarriziyning mo'jaz asaridagi boy ilmiy tahlillar haqida so'z borgan.*

Kalit so'zlar: *xalifa, sama'iy, qiyosiy, lafziy, omillar, ra'f, jazm, mabniy, mu'rob, maf'ul, xos, ommaviy*

**ИЗЯЩНОСТЬ МОВАРУННАХРА: ХАРАКТЕРИСТИКА ПРОИЗВЕДЕНИЙ
АЛИ МУТАРРИЗИ ПО АРАБСКОМУ ЯЗЫКУ, ИХ АНАЛИЗ И АВТОРСКИЙ
КРАСНОРЕЧИВЫЙ ПОДХОД**

Аннотация. *Эта статья посвящена работе «Аль-Мисбах фин нахв» Мутарризи, ученого, жившего в Моваруннахре и работавшего в области арабского языка, литературы и юриспруденции. В статье упоминается метод, использованный в работе, ее главы и некоторые примеры из книги, а также рассказывается о богатом научном анализе замечательного труда Мутарризи.*

Ключевые слова: *xalifa, sama'iy, qiyosiy, lafziy, omillar, ra'f, jazm, mabniy, mu'rob, maf'ul, xos, ommaviy*

**THE INTELLECTUALITY OF MOVAROUNNAHR: CHARACTERISTICS OF
ALI MUTARRIZI'S WORKS ON THE ARABIC LANGUAGE, THEIR ANALYSIS
AND THE AUTHOR'S ELOQUENT APPROACH**

Annotation. *This article is about the work of Al-Misbah fin nahw by Mutarrizi, a scholar who lived in Mawarunnahr and worked in the field of Arabic language, literature and jurisprudence. The article mentions the method used in the work, its chapters and some examples from the book, and also talks about the rich scholarly analysis of Mutarrizi's remarkable work.*

Keywords: *xalifa, sama'iy, qiyosiy, lafziy, omillar, ra'f, jazm, mabniy, mu'rob, maf'ul, xos, ommaviy*

ضياء موارد النهر: خصائص أعمال علي
في اللغة العربية وتحليلها ومنهج المؤلف البليغ
ملخص

هذه المقالة عن كتاب "المصباح في النحو" للمطري الذي عاش في موارد النهر و اشتغل باللغة العربية و الأدب و الفقه. و تذكر في المقالة طريقة التي اصطفى المؤلف للكتاب، و أبوابه و فصوله. و تذكر الأمثلة من الكتاب، و يقدم عن التحليل العلمي في عمل المطرزي الرائع

الرئيسية الكلمات: xalifa, sama'iy, qiyosiy, lafziy, omillar, ra'f, jazm, mabniy, mu'rob, maf'ul, xos, ommaviy

Ma'lumki, uzoq o'tmishga ega bo'lgan O'rta Osiyo xalqlari taraqqiyoti tarixi o'z boshidan turli voqealarni, yuksalish va orqaga ketish davrlarini boshdan kechirdi. Shubhasiz, bu davrlarning barchasi tarixda o'zining ma'lum izini qoldirdi. Xususan, ilm-fan madaniyatimiz taraqqiyotida IX—XII asrlar davrining o'rni beqiyosdir. IX - X asrlarga kelib Movarounnahr hududida mustaqil davlatlarning tashkil topishi ularda siyosiy barqarorlik, iqtisodiy rivojlanish va madaniy hayotning ravnaqiga katta ta'sir ko'rsata boshladi. Buxoro, Samarqand, Gurganj va Marv kabi shaharlar ilm - fan va madaniyat markazlari sifatida shakllanib, rivojlandi.

Shu qatorda, hijriy 538-yil millodiy 1143, mutafakkir olim Mahmud az-Zamaxshariy vafot etgan yilda Xorazm³⁰ poytaxti Gurgonch³¹da tavallud topgan Abulfath Nosir ibn Abdussaid al-Mutarazziydir. Shu sababli unga "Zamaxshariy xalifasi" (o'rinbosari) deya taxallus berilgan. Mutarriziy arab tili grammatikasi bilan bir qatorda hanafiy fiqhi bilan ham shug'ullangan. U nafaqat arab tilida, balki fors tilida ham ijod qilgan, eng birinchi ustozining otasi Abdussaid bo'lgan. So'ng ilmni Zamaxshariyning shogirdi Ahmad ibn Muhammaddan oldi.

وذكر الذهبي إن له تصانيف كثيرا في الأدب والشعر

Az-Zahabiy u haqida: "Albatta uning adabiyot sohasida, she'r yozish borasida ko'pgina ta'lif etgan ishlari bordir³²."

Uning yozgan asarlaridan:

1. "Al-Mug'rib fi tartibil-mu'rib"; (Fiqh lug'atlari)
2. "Al-Izoh"; (Maqomaat sharhi)
3. "Al-Iqna"; (Lug'at haqida)
4. "Al-Misbahu fin nahv" (Nahvdagi shamchiroq)

O'rta asr arab tilshunosligiga oid ilmiymanbalarda an'anaviy grammatik tizimsintaktik, morfologik va fonetik masalalari ketma-ketligida bayon etilgan bo'lib, bu bayon tartibini Sibavayh ilk bora yozma shaklda taqdim etgan. Zamaxshariyning (XI-XII asrlar) "Mufassal" asarigacha yaratilgan boshqa ilmiy asarlarda aynan shu tartibga amal qilingan, biroq olim bunday bayon tartibiga o'zgartirish kiritib, arab tili grammatikasini ism, fe'l va

³⁰ Xorazm-Movarounnahrning g'arbiy qismi;Xorazm hududidan iborat

³¹ Fors tilidan olingan bo'lib, hozirgi "Urganch" shahri

³² Tarajm.com; ناصر بن أبي المكارم عبد السيد بن علي المطرزي أبي الفتح
برهان الدين أبي المظفر

yuklamalar turkumlariga bo'lib tuzgan. Xorazmlik Nasr Mutarriziy ham ushbu uslubda "Misboh" asarini yaratgan bo'lishiga qaramay, bu hodisalarning tasnifini o'zgacha tartibda bergan. Xususan, barcha so'z turkumlari:

- "العوامل اللفظية القياسية" "Qoidaviy me'yoriy omillar (qiyosiy omil)"

- "العوامل اللفظية السماعية" "Eshitib, o'rganib qoida darajasiga olib kelingan omillar³³"

asosida tahlilga tortilgan. Mutarriziy asarda arab tili nuqtai nazaridan sama'iy omillarning qiyosiy omillarga nisbatan kamroq uchrashini ta'kidlab o'tgan.

Bu asar umumiy beshta bob va xulosadan iborat bo'lib, arab tilidagi har bir grammatik masala ma'lum bir faktlarga ko'ra o'rganilgan. Boblar haqida qisqacha ma'lumotlar keltiramiz:

1-bob:

Bu bobda muallif kalima va uning qismlari haqidagi nahviy-istelohiy so'zlarni, undagi har bir qism va ularning alomatlarini, ulardan mu'roblar, sarfdan ma'n qilinganlar, ism va fe'llardan lozim va oriz mabniylarini keltiradi. Bundan tashqari, ikkilik, siniq va to'g'ri ko'plik masalasi ochib berilgan;

2-bob:

Bunda grammatik qoidalar bilan asoslangan til hodisalari keltirilib, qiyosiy lafzlarning omillari haqida so'z boradi, fe'ning foili ra'f holatda bo'lishi, maf'ulun bihi ismi nasb bo'lishini keltiradi. Shu bilan birga nasb bo'lish 2 xil:

Xos-maf'ulun bihi, tamyiz jumla, mansub xabar kiradi;

Ommaviy-masdar, maf'ulun fihi, maf'ulun lahu, maf'ulun ma'ahu, hol kiradi. Shu bilan birga, ismi foil, sifati mushabbaha, muzoaf ism va tamomiy ism haqidadir.

3-bob:

Bu bobda sama'iy (eshitish orqali hosil bo'lgan) lafzlarning omillarini keltirgan va ularni 3 qismga bo'lgan: harf, fe'l, ism. Jar harflari, ismlarni nasb qiluvchi harflar, fe'lga o'xshash harflar, noqis fe'llar, madh, mazzamat va ta'ajjub fe'llari keltirilishi bilab birga barcha yordamchi so'zlar keltirilgan.

4-bob:

Ma'naviy omillarni zikr qilib, ulardan 3 tasini zikr qiladi:ibtido, rofe'ul muzore', sifati omili;

5-bob:

Bu bob ma'rifa, nakra, muzakkar, muannas, tobe'lar, asliy e'roblar, aniq va noaniq e'roblarga bag'ishlangan.

Kitobning xotimasida esa omilning lafzan va qiyosan va sama'an yashiringan bo'lishi keltirilgan³⁴.

³³ XI-XIII asrlarda Movarounnahr tilshunoslarining arab grammatik nazariyasi bo'yicha ilmiy tadqiqotlari; Qosimova Sarvin*q*oz; TDSHI; Toshkent, 2017-yil; 19-bet;

³⁴ الفتح لأبي النحر؛ في المصباح كتاب
وتقديم دراسة؛ 610 - 538 e المطرزي المكارم أبي بن ناصر
الطلائع دار؛ العباس أبو المنعم عبد عادل

Kitobning xususiyatlaridan:

1. Mutarriziy bu kitobda yangi uslubni qo'llagan bo'lib, AbdulQohirga ergashgan holda mavzular nahviy omillar e'tiboridan o'rgangan va uni asos qilib olgan.

2. Bu muhtasar kitobda har bir mustalahlar ta'riflari bilan kelgan. Aynan mana shu usul o'zidan boshqa muhtasarlarda uchramaydi.

“Omil” iborasini ilk ishlatgan lug'atshunos olim- AbdulQohir Al-Jurjoniyydir. U bu haqida shunday deya yozgan:

(كَلٌّ مَا رَفَعَ أَوْ جَرَّ أَوْ نَصَبَ أَوْ جَزَمَ يَسْمَى عَامِلًا)

“Har bir ra'f, jar, nasb va jazm bo'luvchi narsa “omil” deyiladi.

Mutarriziy esa:

(وَالْعَامِلُ عِنْدَهُمْ مَا أَوْجَبَ كَوْنِ آخِرِ الْكَلِمَةِ عَلَى وَجْهِ مَخْصُوصٍ)

Omil bu-maxsus yo'l orqali kalimaning oxirini (e'roblanishga) vojib qilishdir”. Ya'ni 4 e'robdan birini olishga “omil” deyiladi.

Mutarriziy asarida arab tilidagi so'z turkumlarini ajratib o'rganmagan bo'lsada, ularning o'rtasidagi umumiy va farqli jihatlari bayonidan sezilib turadi. Demak, Mutarriziyning “Misboh” asarida so'z turkumlari qayd etilgan beshta bob xususiyatlari bo'yicha o'rganilgan. Kitobdan ba'zi misollar keltirgan holda undagi uslub va xususiyatlar bilan tanishamiz.

الباب الثاني

في العوامل اللفظية القياسية

والمفعول فيه، هو ظرفا الزمان والمكان، فالزمان كله ينتصب بالظرف (مبهما

كان أو محدودا) فالمبهم كالحين و الوقت والمحدود كالיום والليل، و

الشهر و الحول تقول: سرت حيناً ويوماً

وخرجت يوم الجمعة، والمكان

المبهم فحسب، كالجهاث الست³⁵

Ikkinchi bob. Lafziy-qiyosiy omillar

Maf'ulun fihi-bu zamon va makon zarfidir. Albatta zamonga dalolat qiluvchi barcha so'zlar-faqatgina zarf bilan to'g'ri bo'ladi. U mubham (noaniq yoki aniq bo'lishidan qat'iy nazar). Noaniq zamonga-“o'sha vaqtda”, “vaqt” so'zlari kirsa, aniq zamonga: “kun”, “tun”, “oy” kabi so'zlar kiradi.

“Bir muddat yoki bir kun yurdim”, “Jum'a kuni chiqtim”,-deya aytasan. 6 ta tomon ham mubham zarflar hisoblanadi.

الباب الثالث

في عوامل اللفظية السماعية

المشبهة بالأفعال، و هي: إنَّ و أنَّ و أنَّ للتحقيق، و كأنَّ للتشبيه، و لكنَّ للاستدراك

و ليت للتمني، و لعلَّ للترجي، تقول: إن زيدا منطلق، و بلغني أن زيدا منطلق، و كأن زيدا الأسد، و ما جاءني زيد لكن

عمرؤا حاضر، و لعل زيدا قاعد، و الفرق بين أنَّ إنَّ، إنَّ المكسورة مع اسمها

خبرها كلام تام مفيد، و أن المفتوحة لا تفيد حتى يكون ما قبلها فعل، كبلغني أو اسم كقولك: حق أن زيدا منطلق

للمطرزي التحويتة؛ عابد محمد أفضل؛ جامعة "درهام" ٢٠٠٩ عام كتاب المصباح في النحو؛³⁵

Uchinchi bob. "Lafziy-sama'iy omillar

Fe'llarga o'xshash(harf)lar: Ular إن va أن-amalga oshirish uchun, كَأَنَّ-o'xshatish uchun, لَكِنَّ-to'g'irlash uchun, لَيْت-orzu uchun, لَعَلَّ-umid uchun ishlatiladi. "Albatta Zayd ketuvchidir", yoki "Zayd huddi she'r kabidir", yoki "Meni yonimga kelmadi lekin Amr mavjuddir", yoki "Qaniydi Zayd boshliq bo'lsa",-deysiz. "Inna" va "Anna" ning farqlari. Kasralangan إِنَّ-o'zining ism-xabari bilan tugallangan ifodali jumla hosil qiladi. Fathalangan أَنَّ-undan oldin fe'l yoki ism o'tmaguncha tugallangan gap bo'lmaydi. Huddi "menga yetib keldi",-so'zi yoki:" Albatta Zayd ketganligi haqiqat bo'ldi",-gapi kabi.

Bundan ko'rinib turibdiki, Mutarriziyning bu asari oson va tushunarli uslubda yozilgan bo'lib, talaba uchun mavzuni to'liq o'zlashtirishga yordam beradi. Qoidalar qisqa keltirilgan bo'lishiga qaramay, kitobga juda ko'p sharhlar yozilgan. Qisqa so'zlar bilan har bir mavzuning atroflicha bayon etilgani, bu, albatta muallifning balog'atli yondashuvi va o'tkir qalam soxibi ekanligidan dalolat beradi. Bu kitobga yozilgan Tajuddin Muhammad ibn Muhammad ibn Ahmadning "Almiftah-fi sharhil misbah" asarini misol qilishimiz mumkin. Mahmud Zamaxshariy, Mutarriziy, Jurjoni, Daririy kabi olimlar Movarounnahrda arab grammatikasini yangicha usulda bayon etish yo'liga o'tilganligi, arab tilini qisqa vaqtda mukammal egallashni maqsad qilib qo'yganlar uchun muhim dasturiy qo'llanma bo'lganligini kuzatishimiz mumkin. Movarounnahr tilshunoslarining tadqiqotlari arab tilining morfologik va sintaktik tizimiga oid yangi terminlarning shakllanishiga ham turtki bo'lgan. O'rta asr arab tilshunosligiga oid manbalar til rivojiga, uning ommalashishiga va hu manbalar asosida tahsil olish tufayli yuqori natijalarga erishilgan. Shu sababli, bu manbalarni mukammal o'rgangan holda, o'z sohamizda yetuk mutaxxasis bo'lib, ajdodlar merosini kelajakka yetkazish va mutaffakirlar diyori bo'lgan Vatanimizga munosib xizmat qilish ustuvor vazifamizdir.

Foydalanilgan adabiyotlar / References:

1. "Hudud ul-olam", (Movarounnahr tavsifi), mas'ul moharrir Mirsodiq Ishoqov. T.: O'zbekiston, 2007.-(Qadimgi bitiklar);
2. Albukhari.com; أوزبكستان في العربية اللغة وعلوم، العرب تاريخ
3. Tarajm.com; الفتح أبي المطرزي علي بن السيد عبد المكارم أبي بن ناصر
برهان الدين أبي المظفر
4. XI-XIII asrlarda Movarounnahr tilshunoslarining arab grammatik nazariyasi bo'yicha ilmiy tadqiqotlari; Qosimova Sarvinoz; TDSHI; Toshkent, 2017-yil;
5. كتاب المصباح في النحو؛ لأبي الفتح ناصِرُ بن أبي المكارم المَطْرُزِي عادل عبد المنعم أبو العباس؛ دار الطلائع
6. Arabic linguistic in Transoxiana (XI-XIII centuries);Phd;Qosimova Sarvinoz;Tashkent; 2019-year;
7. للمطرزي التحوية؛ عابد محمد أفضل؛ جامعة "درهام" ٢٠٠٩ عام؛ كتاب المصباح في النحو